



**THE IMPORTANCE OF SHOPPING CENTERS FOR  
TOURISTS IN THE TOURISM INDUSTRY OF UZBEKISTAN  
AND THE DEMAND FOR IT**

**Tashkent International Kimyo**

**Technologystudent of the  
university's tourism faculty**

**Jorakulov Sardor Salohiddin oqli**

**[Jurakulovs01@gmail.com](mailto:Jurakulovs01@gmail.com)**

**Research advisor**

**Tashkent International Kimyo**

**Technologyteacher of the  
university's tourism faculty**

**Nurmatova Sitora.Sh**

**[Sitora\\_nurmatova@gmail.ru](mailto:Sitora_nurmatova@gmail.ru)**

**Abstract.** In this article, in order to highlight the importance of shopping centers for tourists in the tourism industry of Uzbekistan and the demand for it, the role of tourism in Uzbekistan, its negative and positive consequences from economic factors, specific functions of the modern tourist market and investment forum The topic "Tourism and retail trade: problems and opportunities" was discussed. Uzbekistan attracts the attention of the whole world with its many historical and architectural monuments, diverse climate and rapid development. Over the centuries, Uzbekistan was located on the path of trade, merchants and travelers, geographers and missionaries, invaders and conquerors of the Great Silk Road. At the moment, Uzbekistan is becoming one of the fascinating tourist destinations for



those who are interested in culture, history, tradition and exotic countries. Uzbekistan is proud of its architectural monuments that have survived to this day. The Ichan-Qala complex in Khiva, historical centers in Bukhara, Shahrissabz and Samarkand cities are included in the special list of UNESCO's "World Heritage". Unique monuments and architectural structures in these cities reflect the past and play a major role in the history of the country.

**Key words:** tourism, political economic factors, tourists, income, development, growth rate.

**O'zbekiston turizm sanoatida turistlar uchun savdo markazlarini ahamiyati va unga bo'lgan talab.**

*Toshkent xalqaro Kimyo texnologiya  
universiteti turizm fakulteti talabasi  
Jorakulov Sardor Salohiddin o'g'li*

[Jurakulovs01@gmail.com](mailto:Jurakulovs01@gmail.com)

*Ilmiy rahbar*

*Toshkent xalqaro Kimyo texnologiya  
universiteti turizm fakulteti o'qituvchisi*

*Nurmatova Sitara.Sh*

[Sitara\\_nurmatova@gmail.ru](mailto:Sitara_nurmatova@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston turizm sanoatida turistlar uchun savdo markazlarini ahamiyati va unga bo'lgan talabni yoritish maqsadida O'zbekistonda turizmning tutgan o'rni, uning iqtisodiy omillar tarafidan salbiy va ijobiy oqibatlari, zamonaviy turistik bozorning o'ziga xos funksiyalari va investitsiya forumi doirasida "Turizm va chakana savdo: muammolar va



imkoniyatlar” mavzusi haqida fikr yuritildi. O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me‘moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur‘atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo‘g‘rofiyashunoslar va missionerlar, isti‘lochilar va zabt etuvchilarning yo‘lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an‘ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me‘moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning “Butun dunyo me‘rosi” ning maxsus ro‘yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me‘moriy inshootlar o‘tmish zamonlarni o‘zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** turizm ,siyosiy iqtisodiy omillar, sayyohlar,daromat,rivojlanish ,o‘shish tezligi.

### **Turizmning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati**

Turizm – bu xordiq chiqarish va dam olish sog'lomlashtirish mehmondorchilik, kasbiy va ish maqsadlarida insonlarning bo'sh vaqtida o'zlarining doimiy yashash joylaridan vaqtinchalik boshqa davlatlar yoki joylardagi vaqtinchalik xarajat qilishlaridir (tashrif buyurgan joyda haq to'lanadigan ish bilan shug'ullanmasdan). Turizm atamasi uzoq yillar mobaynida ko'pgina davlatlarda ishlatilib kelingan. Ushbu so'z —ulkan tur(sayohat) ma‘nosidan kelib chiqib va dastlab tanishuv tashrifini anglatgan. Bunday tashrifni XVII-XVIII asrlarda yosh dvoryanlar amalga oshirganlar. Tashrif maqsadi bo'lib turistlarning boshqa madaniyatlari bilan tanishishlari bo'lishgan. Asrlar mobaynida turizmning asosiy belgilanishi – bu sayohatchilarning boshqa davlatlar bilan tanishishlari, boshqa xalqlar bilan



aloqalarni o'rnatish hisoblanib kelmoqda. Mamlakat iqtisodiyoti va turizm bir biri bilan o'zaro bog'liq harakatdadir.

Umumiqtisodiy omillar turizmga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijobiy ta'sir omillariga quyidagilar kiradi:

1. Real daromadning oshishi – real daromadning oshishida iste'molchilar o'z ixtiyorlarida katta mablag'ga ega bo'ladilar va tegishli ravishda turizmga talab ortadi;
2. Daromadning tekisroq taqsimlanishi jamiyatda daromad bir tekisda taqsimlansa, ko'proq shaxslar turistik mahsulotni xarid qilishlari mumkin bo'ladi;
3. Valyutaning barqaror holati – agarda chet el valyutasining kursi barqaror bo'lsa, aholi uni ko'p hajmda xarid qilishi mumkin.

Turizmga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy inqiroz holatlari;
2. Ishsizlikning oshishi, ish haqining kamayishi va hokazolar;



3. Valyuta bilan nobarqaror holat – agarda chet el valyutasining kursi yuqori bo'lsa, aholi uni kam xarid qiladi va natijada mamlakat aholisining chet ellarga chiqishi qimmatga tushadi.

Turizm rivojlanayotgan hudud iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizmning jamiyat ta'sirini uch asosiy yondashish bo'yicha ajratish mumkin: iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar.

## Zamonaviy turistik bozorning o'ziga xos funksiyalari




### 1 rasmda Zamonaviy turistik bozorning o'ziga xos funksiyalari.

Zamonaviy turistik bozorning iste'molchi(turist)ga turistik mahsulotni yetkazib berish jarayonini tashkillashtirish funksiyasi turizmning asosiy jihatlaridan biridir. Chet eldan kelgan har qanday sayohatchini o'sha tashrif bugurgan mamlakatidagi eng esda qolarli jihati bu u yerning savdo madaniyati hisoblanadi nazarimda. Aynan shu sohani o'zining yashaydigan mamlakati madaniyati bilan solishtirish ehtimoli katta. Shunday ekan, O'zbekistonda savdo majmualari, u yerdagi savdo madaniyati, istemolchi va savdogarlarning o'zaro aloqalari juda ham katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda so'nggi 7 yil ichida turizm sohasida yaxshigina



rivojlanishni kuzatishimiz mumkin. Butun jahonga kelgan katta sinov pandemiyani hisobga olsak bu sohaga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatganini inobatga olib, oxirgi 3,4 yil mobaynida O'zbekiston turizmni qayta rivojlantirish, yangilash bilan bandligining guvohi bo'lamiz. Mamlakatda bunyod bo'lgan jamiyiki inshoatlar, bozorlar, zamonaviy savdo majmualari, mehmonxonalarni dunyo standartlariga mos ravishda bunyod etish asosiy va muhim jihatlardandir.



## 2-rasmda 2022 yilda tashrif buyurgan sayohlar statistikasi keltirilgan.

O'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonga 5,2 million xorijlik sayohatchi tashrif buyurgan, deya ma'lum qildi Statistika agentligi. Bu ko'rsatkich 2021 yil bilan solishtirganda 3,4 millionga oshgan. Biroq pandemiyadan avvalgi 2019 yil bilan qiyoslaganda 1,5 millionga kamaygan. O'zbekistonga eng ko'p sayyoh (1,5 mln kishi) Qozog'istondan kelgan. Keyingi o'rinlarni Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya hamda Turkiya davlatlari egalladi. Bundan tashqari, o'lkamizga Janubiy Koreya, Germaniya, Hindiston, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniyadan 8 mingdan ortiq sayyoh tashrifi qayd etilgan. E'tiborlisi, 2022 yilning sentabrida Rossiyada armiyaga safarbarlik e'lon qilinganidan so'ng O'zbekistonga ushbu davlat fuqarolarining kelishi ko'paygandi.



### 3-rasmda Hozirgi kundagi sayyohlar soni keltirilgan

Raqamlarga ko‘ra, yil davomida 567,7 ming nafar rossiyalik mamlakatimizga kelgan. Mamlakatimizga 2020 yilda 1 504 000, 2019 yili esa 6 784 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2020 hamda 2021 yillarda turistlar oqimi kam bo‘lgani koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq.

#### Visitors by countries [ edit ]

Visitors arriving to Uzbekistan were from the following countries of nationality:

Nationality	2019 <sup>[4]</sup>	2018 <sup>[5]</sup>	2017 <sup>[6]</sup>	2016 <sup>[7]</sup>	2015 <sup>[8]</sup>	2014 <sup>[9]</sup>
Kazakhstan	▼ 2,261,094	▲ 2,456,866	▲ 1,783,815	▲ 1,412,161	▲ 1,285,008	1,163,984
Tajikistan	▼ 1,473,684	▲ 1,700,658	▲ 261,861	▼ 213,692	▼ 246,816	291,167
Kyrgyzstan	▲ 1,454,907	▲ 1,101,477	▲ 375,017	▲ 174, 845	▲ 146,332	119,620
Turkmenistan	▲ 574,795	▲ 245,756	▲ 62,483	▼ 49,526	▲ 55,060	44,925
Russia	▼ 455,470	▲ 460,166	▲ 143,900	▼ 119,049	▼ 123,153	124,218
Turkey	▼ 63,539	▲ 74,802	▲ 55,238	▲ 46,069	▼ 40,389	40,563
Afghanistan	▼ 62,580	▲ 71,067	▲ 32,130	▲ 24,365	▲ 21,995	21,249
China	▲ 54,293	▲ 37,083	▲ 19,749	▲ 16,765	▲ 16,441	14,818
South Korea	▲ 35,524	▼ 32,700	▲ 37,357	▲ 31,936	▼ 30,489	33,323
India	▲ 27,898	▲ 22,198	▼ 15,829	▼ 18,746	▼ 19,827	21,707
Germany	▲ 27,625	▲ 19,056	▲ 7,811	▲ 6,605	▼ 6,122	8,041
Japan	▲ 24,944	▲ 17,237	▲ 4,086	▲ 3,012	▼ 2,306	2,423
France	▲ 20,390	▲ 14,195	▲ 5,748	▲ 4,889	▼ 3,670	6,019
Italy	▲ 20,356	▲ 14,156	▲ 5,162	▲ 3,057	▼ 2,601	3,520
USA	▲ 17,106	▲ 12,723	▲ 1,525	▼ 1,349	▼ 1,367	1,454

### 4-rasmda dunyo boylab sayohlarning soni ketirilgan



Turistlar soni ko‘paygan, xizmat ko‘rsatish darajasi-chi?

2017 yilda joylashtirish vositalari soni 767 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda ularning soni 5 mingtaga yetkazildi. 2018 yilda 106 ta (o‘rinlar soni 841 ta) oilaviy mehmon uylari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 3,1 mingta va o‘rinlar soni 27,8 mingga yetkazildi. Shu bilan birgalikda sohada tadbirkorlik sub‘yektlari soni ortdi. Turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi sub‘yekt va obektlar soni 4091 (2017 yilda – 749 ta) taga, jumladan, turoperatorlar – 1663 ta (2017 yilda – 749 ta), turagentlar – 119 ta (2017 yilda – mavjud bo‘lmagan) va gidekskursovod soni 2309 taga (2017 yilda – 574 ta) yetkazildi. 2018-2022 yillarda sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida yo‘l bo‘ylari va aholi gavjum joylardagi 7,6 mingta sanitariya-gigiyena shoxobchalari holati yaxshilandi (3,9 mingta yangidan ko‘rildi, 3,7 mingta ta‘mirlandi). Respublikadagi mavjud avtomobillarga yoqilg‘i quyish stansiyalarining 96 foizida sanitariya-gigiyena shoxobchalari tashkil qilingan.

### **Asosiy qism.**

2023-yil 27-aprel kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida “Turizm va chakana savdo: muammolar va imkoniyatlar” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Turizm va chakana savdoning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy an‘analar bilan chambarchas bog‘liq. Turizm va chakana savdo bugungi kunda iqtisodiyotning tobora muhim tarmoqlariga aylanib, ish o‘rinlari yaratish, daromadlarni oshirish va investitsiyalarni jalb etishga katta hissa qo‘shmoqda. Tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o‘rinbosari Badriddin Abidov, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirining birinchi o‘rinbosari Ulug‘bek A‘zamov, “Tashkent City Mall” savdo markazi direktori Gabriele Bertini, Accor Group bosh amaliy direktori Aleksis Delaroff, ISR Holding bosh direktori Rauf Xalilov, ZARA, Cenomi Retail biznes direktori Hassan Slim spikerlar sifatida chiqish qilishdi. Tadbirda





ta'kidlanganidek, yer yuzining o'rtacha har o'ninchi aholisi turizm sohasida ishlamoqda. Shu bois pandemiya davri butun dunyoga ushbu sohaning jahon iqtisodiyoti uchun qanchalik muhimligini ko'rsatib berdi. Hozirgi vaqtda shopping-turizm tobora turizm zanjirining qiymat yarata oladigan muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Mehmonxona va restoran biznesi mehmondo'stlikning asosiy tarkibiy qismi va turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turizmni rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlik va investitsion faollikni rivojlantirishni rag'batlantirmoqda.

– Turizm iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq, – deydi O'zbekiston Respublikasi investisiyalar, sanoat va savdo vazirining o'rinbosari Badriddin Abidov. – Iqtisodiyotning 70 ga yaqin kichik tarmoqlari turizm bilan bog'liq, shuning uchun biz hozirda mintaqani yanada jozibador qilish va turizmni chakana savdo bilan bog'lash maqsadida sayyohlar oqimini ko'paytirishga e'tibor qaratmoqdamiz. Ayni paytda biz boshqa davlatlar, masalan, Dubay tajribasini o'rganyapmiz. Bundan tashqari, investorlarga O'zbekiston bozoriga kirishda qulaylik yaratish maqsadida eksportyorlarning elektron reyestri yaratildi, shuningdek, savdo markazlarida ijaraga berish tartibi soddalashtirildi.

ISR Holding bosh direktori Rauf Xalilov shunday dedi:

– O'zbekistonning investorlar uchun salohiyati juda katta. O'zbekistonda qanday qulay sharoitlar yaratilgani, jumladan, soliqqa tortish, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bilan tanishdik. Talab bor, ajoyib madaniyat, ajoyib oshxona, mentalitet – bularning barchasi investorlar uchun bu yerga kelib, investitsiya kiritish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Barcha zarur omillar



mavjud va hozir biz O‘zbekiston bozoriga kirish masalasini jiddiy ko‘rib chiqyapmiz. Iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi daromadlari darajasining oshishi bilan ko'proq odamlar sayohat qilishni va chakana xizmatlardan foydalanishni boshladilar. Bu yangi turizm va chakana xizmatlarga talabning oshishiga, shuningdek, infratuzilma va turizm biznesining rivojlanishiga olib keldi. Jumladan, bu ichki turizmning ham o'sishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda bugungi kunda sayyohlar soni pandemiyadan oldingiga qaraganda ko‘proq.

Tashkent City Mall savdo markazi direktori Gabriele Bertini o‘z rejalari bilan o‘rtoqlashdi:

– Biz Toshkent shahrida turizm konsepsiyasini ishlab chiqishni yakunlash niyatidamiz. Bular A sinfidagi biznes markazlar, hashamatli mehmonxonalar va rezidensiyalar, Toshkent va butun Osiyodagi yirik savdo markazlari. Biz iste'molchilar uchun yangi tajriba yaratmoqchimiz va mehmonxonalar sektorini kengaytirmoqchimiz. O‘zbekiston – ulkan sayyohlik salohiyatiga ega davlat. Sayohatchilar o'z sarguzashtlarini davom ettirarkan ular sayohat qilayotgan mamlakatlarning madaniyatini o'rganish, o'z madaniyati bilan solishtirish orqali o'zlariga turli yangiliklarni, o'ziga hos tajribalarni orttirib, ma'naviy o'sib, rivojlanib boradilar. Aynan O'zbekiston haqida to'xtalsak, bizning me'moriy obidalarimiz, va bugungi bunyodkorligimizni zamon va tariximiz bilan uyg'unliklarini ko'rishlari mumkin. O'zbekistonning har burchagida uning o'zligiga ta'rif beruvchi manbaalar mavjud. Buni hattoki kichik haykalchalarida ham guvohi bo'lishimiz mumkin. O'sha siz-u biz bilgan cho'pon va sallali kichkina haykal amaki qo'llarida o'zbeklarning milliy g'ururiga aylanib ulgurgan oshni shirin kulgu ila ko'tarib turgan holatida ham o'zbegining mehmondo'stligining ma'nosi ufurib turadi. Katta katta laganlarga chizilgan naqshlarning esa har bir qismida olam olam ma'no yotadi. Albatta, huddi shu



kichik ko'ringan jihatlar aslida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yurtga tashrif buyurgan sayohatchilar aynan shu madaniyatni, aynan shu muhitni hayotlari davomida his etib turishlari uchun o'zlari bilan birga o'zbeginning mehnati singgan parchalardan esdalik uchun mana shunday buyumlarni chinakam muhlisiga aylanib olib ketadilar.

**Xulosa:** O'zbekistonning har burchagida uning o'zligiga ta'rif beruvchi manbaalar mavjud.Sayyohlarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi toboro oshib bormoqda.O'zbekiston haqida to'xtalsak, bizning me'moriy obidalarimiz, va bugungi bunyodkorligimizni zamon va tariximiz bilan uyg'unliklarini ko'rishlari mumkin.Bu albatta O'zbekiston turistik markazga aylanishi ehtimoli kattaligidan darak beradi.

**Manbaalar:**

1. Kun.uz sayti.
2. <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>
3. «Turizm iqtisodiyoti va menejmenti» o'quv qo'llanmasi . Toshkent «Iqtisodiyot»2019. M. Amanboyev, D.I. Abidova, N.A Jurayeva.